

**2024-2025-O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING**

9-SINF

O'QUVCHILARI UCHUN

MATEMATIKA

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI
O'TKAZISH BO'YICHA
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

**2024-2025-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI
O'TKAZISH BO'YICHA MATEMATIKA FANIDAN SPETSIFIKATSIYASI**

Tuzuvchilar: S.F.Salayev, M.X.Komilov, Sh.T.Kojamuratova Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi mutaxassisleri.

Taqrizchilar: M. A. Mirzaxmedov Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi eksperti.

D.E. Shnol- Ta'lim bo'yicha xalqaro ekspert.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING 2025-yil 20-fevraldagi "2024/2025-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 65-son buyrug'i

O'quvchilarning matematika fanidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2024– 2025-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

I. 9-sinflarda matematika fanidan yakuniy attestatsiya variantining tuzilishi.

Imtihon ishining har bir varianti ikki qismdan iborat bo'lib, shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 16 ta topshiriqni o'z ichiga oladi (5-jadval).

1-qism 11 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta son, birligi bilan yozilgan kattalik ko'rinishida berilishi kerak.

2-qism kengaytirilgan javobli 5 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, ularda masalaning yechimini asoslab, chizmalari bilan taqdim etish lozim.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari matematika fani bo'yicha umumta'lim maktablarning 5-, 6-, 7-, 8-, 9-sinflari mavzularini, Sonlar va amallar, Algebra va funksiya, Statistika va ehtimollik hamda Geometriya va o'lchash mazmun sohalarini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir variantda o'quvchiga 16 tadan (10 ta algebra, 6 ta geometriya) savol beriladi. Savollarning 4 tasi (2 ta algebra, 2 ta geometriya) bilishga, 10 tasi (7 ta algebra, 3 ta geometriya) qo'llashga, 2 tasi (1 ta algebra, 1 ta geometriya) mulohazaga oid bo'ladi. Variant topshiriqlarini bajarish uchun 180 daqiqa vaqt beriladi.

O'quvchilarning yozma ishlari algebra 100 ball va geometriya 100 ball asosida baholanadi:

0 – 29% – “qoniqarsiz”;

30–65% – “qoniqarli”;

66–85% – “yaxshi”;

86–100% – “a'lo”.

Javoblar varaqasini to'ldirish shartlari:

qisqa javobli topshiriqlarning javoblari faqat raqamlarda yoki bosma harflarda, topshiriqda so'ralgan o'lchov birliklarida (bosma harflarda) yozilishi kerak, aks holda 0 ball qo'yiladi, bunda har bir katakka bitta simvol yozilishi kerak;

har bir katakka faqat bitta raqam yoziladi, agar javob manfiy son bo'lsa, minus belgisi alohida katakka yoziladi, o'nli kasr bo'lsa vergul ham alohida katakka yoziladi, burchakning qiymati so'ralgan topshiriqlarda burchak gradus o'lchov birligida gradus belgisiz yoziladi;

kengaytirilgan javobli topshiriqlar alohida javob varag'iga yoziladi va baholovchi fan ekspertlari tomonidan belgilangan mezonlar asosida tekshiriladi. Har bir topshiriq uchun batafsil baholash mezonlari berilgan bo'lib, unda har bir ball (noldan maksimal ballgacha) qanday holatda qo'yilishi aniq ko'rsatiladi;

har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi.

1-jadval

Sinov materiallarining qismlar bo'yicha taqsimoti

Qism	Topshiriqlar soni	Algebra	Geometriya	Topshiriq shakli	Algebra bali	Geometriya bali	Qism ulushi %
1-qism	11	7	4	Javobi yoziladigan	63	64	
2-qism	5	3	2	To'liq yechimi keltirilgan	37	36	
Jami	16	10	6		100	100	100

2-jadval

Mazmun sohalari bo'yicha topshiriqlarning taqsimoti

Mazmun soha	Topshiriqlar soni	Topshiriqlarning foizi	Qisqa javobli bali	To'liq javobli bali	Jami ball
Sonlar va amallar	3	18	27		27
Algebra va funksiya	6	38	27	37	64
Ehtimollar nazariyasi va statistika	1	6	9		9
Geometriya va o'lchash	6	38	64	36	100

3-jadval

Baholanadigan ko'nikmalar taqsimoti

Fan	Bilish	Qo'llash	Mulohaza
Algebra	2	7	1
Geometriya	2	3	1
Jami	4	10	2

B-bilish, reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalar, formula, tushuncha va atamalarining mohiyatini bilish, **yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda** qo'llashga qaratilgan.

Q-qo'llash, produktiv o'quv topshiriqlari – o'quvchilardan o'rganilgan mavzuga oid qonun va qonuniyatlar, xossalar va formulalarni qo'llash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, **bir nechta qonun va qonuniyatlarni** bir vaqtda qo'llab, umumlashtirish va xulosa yasashni talab qiladi.

M-mulohaza, intellektual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni **notanish vaziyatlarda** qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi.

	Qisqa javobli bali/soni	To'liq yechimli bali/soni	Jami
Algebra	9 ball / 7 ta	12 ball/ 2 ta, 13 ball / 1 ta	100
Geometriya	16 ball / 4 ta	18 ball / 2 ta	100

Topshiriq tartib raqami	Bo'lim nomi	Baholanadigan ko'nikmalar	Ko'nikma darajasi	Topshiriq shakli	Ball	Qism
Algebra						
1	Hisoblashga doir mashqlar yechish (Kasrlar ustida amallar bajarish. Ratsional ko'rsatkichli daraja xossalari, n – darajali ildiz xossalari)	Sonli ifodalarni qiymatini topishda, kasrlar ustida to'rt amallarni bajarish qoidalarida, daraja xossalari, ildiz xossalari foydalana oladi	B	Qisqa javobli	9	I
2	Qisqa ko'paytirish formulalarining tadbiqlari	Algebraik ifodalar ustida amallar bajarishda, ifodalarni soddalashtirishda qisqa ko'paytirish formulalaridan foydalana oladi	Q	Qisqa javobli	9	I
3	Kombinatorika masalalari. Ma'lumotlar tahlili	Kombinatorika masalalarini yechishda qo'shish va ko'paytirish xossalari, guruhlash va o'rin almashtirish formulalarini qo'llay oladi, berilgan sonli qator ko'rinishidagi ma'lumotlarni tahlil qila oladi	B	Qisqa javobli	9	I
4	Kvadrat funksiyalar	Kvadrat funksiya grafigini chiza oladi, grafikka qarab funksiyaning aniqlanish va qiymatlar sohasini; funksiyaning o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlay oladi	Q	To'liq yechimli	13	II
5	Matnli masalalar	Foiz, harakat va ishga doir matnli masalalarni yecha oladi	Q	Qisqa javobli	9	I

6	Tenglamalar	Chiziqli, kvadrat va modul qatnashgan tenglamalarni yecha oladi, yechish usullarini masalalar yechishda qo'llay oladi	Q	Qisqa javobli	9	I
7	Tengsizliklar	Chiziqli tengsizliklar va tengsizliklar sistemasi, kvadrat tengsizlik, modul qatnashgan tengsizliklarni yecha oladi, yechimni sonlar o'qida tasvirlay oladi, yechimni sonli oraliq ko'rinishida tasvirlay oladi	Q	To'liq yechimli	12	II
8	Tenglamalar va tenglamalar sistemasi yordamida masalalar yechish	Masalalar yechishda tenglamalar va tenglamalar sistemasi yechish usullarini qo'llay oladi	M	To'liq yechimli	12	II
9	Trigonometriya elementlari	Trigonometrik funksiyalarni burchaklardagi qiymatini aniqlay oladi, bir-biri bilan bog'lay oladi	Q	Qisqa javobli	9	I
10	Progressiyalar.	Progressiyalarga doir matnli masalalarni yecha oladi	Q	Qisqa javobli	9	I
Geometriya						
11	Burchak	Noma'lum burchak qiymatlarini topishda parallellik alomatlarini qo'llay oladi; soat va minut millari hosil qilgan burchak qiymatlarini topa oladi; uchburchakning noma'lum burchaklari qiymatlarini topa oladi	B	Qisqa javobli	16	I
12	Uchburchaklar. Pifagor teoremasi	Uchburchaklar elementlarini bir-biri bilan bog'lay oladi, uchburchak yuzini topishga doir masalalar yechishda Pifagor teoremasini tadbqiq qila oladi	Q	To'liq yechimli	18	II

13	To'rtburchaklar: kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, parallelogramm, romb va trapetsiya	Chizma bilan berilgan to'rtburchaklar: kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, parallelogramm, romb va trapetsiya xossalarini keltira oladi, perimetri va yuzini topa oladi	Q	Qisqa javobli	16	I
14	Aylana va doira	Aylana uzunligi va doira, doira bo'laklari yuzini aniqlay oladi; masalalar yechishda aylanadagi metrik munosabatlardan foydalana oladi, aylana va doira tenglamasini tuza oladi	B	Qisqa javobli	16	I
15	Muntazam ko'pburchaklar va ularga ichki va tashqi chizilgan aylana	Muntazam ko'pburchaklar tomoni bilan unga ichki va tashqi chizilgan aylana radiusini bog'lay oladi	Q	Qisqa javobli	16	I
16	Sinuslar va kosinuslar teoremlari tadbirlari. Uchburchaklarning o'xshashligi	Uchburchak elementlarini topishda, sinuslar, kosinuslar teoremlari va o'xshashlik xossalarini tadbiq qila oladi	M	To'liq yechimli	18	II

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matematika 5-sinf darslik. I va II qism. B.Xaydarov. Toshkent 2020.
2. Matematika 6-sinf darslik. Sh.Ismailov (va boshqalar). Toshkent 2022.
3. Algebra 7-sinf darslik. A.Akmalov (va boshqalar). Toshkent: Respublika ta'lim markazi 2022.
4. Geometriya 7-sinf darslik. B.Xaydarov, N.Tashtemirova. I.Asrorov. Toshkent: Respublika ta'lim markazi 2022.
5. Algebra: 8-sinf darslik. Sh.A.Alimov, A.R.Xalmuxamedov, M.A.Mirzaxmedov. Toshkent: "O'qituvchi" 2019.
6. Geometriya: 8-sinf darslik. A.A.Rahimqoriyev. Toshkent: "O'zbekiston" 2019.
7. Algebra 9-sinf darslik. Sh.A.Alimov, A.R.Xalmuxammedov, M.A.Mirzaxmedov. Toshkent: "O'qituvchi", 2019.
8. Geometriya 9-sinf darslik. B.Q.Xaydarov, E.S.Sariqov, A.Sh.Qo'chqorov. Toshkent: "Huquq va Jamiyat", 2019.

9 sinf yakuniy imtihon materiallari Algebra topshiriqlari

I. Hisoblashga doir mashqlar yechish (Kasrlar ustida amallar bajarish. Ratsional ko'rsatkichli daraja xossalari, n – darajali ildiz xossalari)

1. Hisoblang: $\sqrt{16} - 2,75$

Javob: _____

2. Hisoblang: $2,03 \cdot \sqrt{400}$

Javob: _____

3. Hisoblang: $2,3 - \sqrt{0,36}$

Javob: _____

4. Hisoblang: $\sqrt{49} - 0,5^2$

Javob: _____

5. Hisoblang: $\sqrt{36} - 4,45$

Javob: _____

6. Hisoblang: $3,05 \cdot \sqrt{900}$

Javob: _____

7. Hisoblang: $3,2 - \sqrt{0,36}$

Javob: _____

8. Hisoblang: $\sqrt{64} - 0,1^2$

Javob: _____

9. Hisoblang: $\sqrt{25} - 3,15$

Javob: _____

10. Hisoblang: $5,02 \cdot \sqrt{1600}$

Javob: _____

11. Hisoblang: $4,3 - \sqrt{0,64}$

Javob: _____

12. Hisoblang: $\sqrt{49} - 0,6^2$

Javob: _____

13. Hisoblang: $\sqrt{36} - 2,15$

Javob: _____

14. Hisoblang: $2,03 \cdot \sqrt{2500}$

Javob: _____

15. Hisoblang: $7,3 - \sqrt{0,49}$

Javob: _____

16. Hisoblang: $\sqrt{81} - 0,8^2$

Javob: _____

17. Hisoblang: $\sqrt{16} - 6,75$

Javob: _____

18. Hisoblang: $4,05 \cdot \sqrt{400}$

Javob: _____

19. Hisoblang: $9,1 - \sqrt{0,09}$

Javob: _____

20. Hisoblang: $\sqrt{121} - 0,3^2$

Javob: _____

II. Qisqa ko‘paytirish formulalarining tadbiqlari

1. Ifodani soddalashtiring: $a^2 - 4a - (a + 2)^2$

Javob: _____

2. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2-3a}{a^2-9}$

Javob: _____

3. Ifodani soddalashtiring: $(a - 3)^2 - a(a + 6)$

Javob: _____

4. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2-4a+4}{3a-6}$

Javob: _____

5. Ifodani soddalashtiring: $a^2 + 6a - (a - 3)^2$

Javob: _____

6. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2+5a}{a^2-25}$

Javob:_____

7. Ifodani soddalashtiring: $(7 - a)^2 - a(14 + a)$

Javob:_____

8. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2+6a+9}{5a+15}$

Javob:_____

9. Ifodani soddalashtiring: $a^2 - 10a - (a + 5)^2$

Javob:_____

10. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2-6a}{a^2-36}$

Javob:_____

11. Ifodani soddalashtiring: $(6 - a)^2 - a(6 + a)$

Javob:_____

12. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2+10a+25}{3a+15}$

Javob:_____

13. Ifodani soddalashtiring: $a^2 + 12a - (a - 6)^2$

Javob:_____

14. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2+7a}{a^2-49}$

Javob:_____

15. Ifodani soddalashtiring: $(a - 4)^2 - a(a + 8)$

Javob:_____

16. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2-6a+9}{4a-12}$

Javob:_____

17. Ifodani soddalashtiring: $a^2 - 4a - (a - 2)^2$

Javob:_____

18. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2-10a}{a^2-100}$

Javob:_____

19. Ifodani soddalashtiring: $(a - 5)^2 - a(a + 10)$

Javob:_____

20. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2+12a+36}{3a+18}$

Javob: _____

III. Kombinatorika masalalari. Ma'lumotlar tahlili

1. Maktab kutubxonasida informatika bo'yicha 4 xil, xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha 5 xil va matematika bo'yicha 3 xil qo'llanma bor. Jasur ikki xil sohadagi qo'llanmalardan bittadan olib, bilimlarini mustahkamlamoqchi. Nechta turli usulda tanlash mumkin?

Javob: _____

2. Sizga ingliz tilidagi 7 ta qiziqarli kitob tavsiya qilindi. Ushbu oyda o'z bilimlaringizni oshirish uchun ulardan 3 tasini tanlab o'qimoqchisiz. Siz bu tanlovni nechta usulda amalga oshirishingiz mumkin?

Javob: _____

3. Ekologik tanlovda ishtirok etgan 12 ta maktab orasidan tabiatni asrash, chiqindilarni qayta ishlash va suvni tejash bo'yicha 1-, 2-, 3-o'rinlar belgilanmoqda. Bu mukofotli o'rinlar maktablar orasida necha xil usul bilan taqsimlanishi mumkin?

Javob: _____

4. Ikkita har xil juft raqamdan tashkil topgan nechta ikki xonali son mavjud?

Javob: _____

5. Onlayn ta'lim platformasida 3 xil grafik dizayn, 4 xil dasturlash va 2 xil ingliz tili kurslari mavjud. Dilshod ikki xil yo'nalishdan bittadan kurs olib, mustaqil ta'lim olishga qaror qildi. U nechta xil usulda kurslarni tanlashi mumkin?

Javob: _____

6. Maktabdagi til kursida 8 xil chet tili mashg'ulotlari mavjud. Siz bu yil davomida kamida 4 tasida qatnashib, bilim doirangizni kengaytirmoqchisiz. Bu kurslarni necha xil usulda tanlashingiz mumkin?

Javob: _____

7. "Toza shahar" ekologik loyihasida qatnashayotgan 10 ta guruh orasidan 1 ta guruh ekologiya bo'yicha "Eng yaxshi loyiha", 1 ta guruh "Eng yaxshi suvni tejash g'oyasi", yana 1 ta guruh "Eng yaxshi tabiatni asrash loyihasi" nominatsiyasida g'olib bo'ladi. Ushbu nominatsiyalar nechta usulda taqsimlanishi mumkin?

Javob: _____

8. Raqamlari turli va 4 dan katta bo'lmagan nechta ikki xonali son mavjud?

Javob:_____

9. Elektronika do'konida 6 xil sichqoncha (mouse), 3 xil klaviatura va 5 xil flesh-xotira mavjud. Sanjar bu mahsulotlardan turli nomdagi ikkita mahsulot sotib olishni istaydi. Sanjarning nechta turli tanlov varianti mavjud?

Javob:_____

10. Xalqaro ta'lim dasturiga qatnashish imkoniyati sifatida 6 xil xorijiy mamlakatda o'quv seminarlari mavjud. Siz ulardan aynan 2 ta mamlakatga borib bilim olishni rejalashtiryapsiz. Nechta turli xil tanlov amalga oshira olasiz?

Javob:_____

11. Maktabda o'tkazilgan ekologik aksiyada qatnashgan 15 o'quvchidan 1-o'ringa – "Atrof-muhit posboni", 2-o'ringa – "Tabiat himoyachisi", 3-o'ringa – "Suvni tejash faoli" medallari beriladi. Ushbu medallar nechta usulda taqsimlanishi mumkin?

Javob:_____

12. Raqamlari turli va 5 dan katta bo'lmagan nechta ikki xonali son mavjud?

Javob:_____

13. Texnologiyalar markazida xorijiy tillarni o'rgatuvchi 3 xil mobil dastur, dasturlashni o'rgatuvchi 4 xil mobil dastur hamda matematikani oson o'zlashtirish uchun 2 xil mobil dastur mavjud. Sarvinoz turli nomdagi ikki xil soha bo'yicha ikkita dasturni smartfoniga yuklab olmoqchi bo'lsa, nechta usulda tanlovni amalga oshirishi mumkin?

Javob:_____

14. Internetdagi ilmiy-ta'limiy vebinarda 5 xil mavzuda veb-darslar e'lon qilindi. Siz shulardan aynan 3 ta eng kerakli va foydalisini tanlab ko'rmoqchisiz. Sizning tanlovingiz nechta turli usulda amalga oshiriladi?

Javob:_____

15. Hududdagi ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha 8 xil loyiha orasidan hakamlar 1-o'rin (tabiatni asrash), 2-o'rin (atrof-muhitni toza saqlash), 3-o'rin (suv resurslarini tejash) uchun eng yaxshi loyihalarni tanlaydi. Ushbu tanlov necha xil usulda amalga oshiriladi?

Javob:_____

16. Ikkita har xil toq raqamdan tashkil topgan nechta ikki xonali son mavjud?

Javob:_____

17. Elektronika aksessuarlari sotiladigan do‘konda 6 xil smart-soat, 8 xil simsiz quloqchin va 5 xil portativ quvvatlagich (power bank) mavjud. Sevinch opa ushbu do‘kondan turli nomdagi ikkita mahsulot xarid qilishni rejalashtiryapti. Sevinch opa nechta turli usul bilan xarid amalga oshirishi mumkin?

Javob:_____

18. Sport bilan shug‘ullanishingiz uchun ustozingiz sizga 5 xil sport mashg‘ulotlarini tavsiya qildi. Siz ulardan 2 tasini tanlamoqchisiz. Buni necha xil usulda amalga oshirish mumkin?

Javob:_____

19. Ekologik video-roliklar tanlovida ishtirok etgan 9 ta jamoa orasidan "Eng yaxshi tabiatni muhofaza qilish videosi", "Eng yaxshi ekologik targ‘ibot videosi" va "Eng yaxshi suvni tejash videosi" nominatsiyalari bo‘yicha mukofotlar topshiriladi. Mukofotlar jamoalar orasida necha xil usul bilan taqsimlanishi mumkin?

Javob:_____

20. Har bir raqami 6 dan kichik bo‘lmagan raqamlardan tashkil topgan nechta ikki xonali son mavjud?

Javob:_____

IV. Kvadrat funksiyalar

1. $y = x^2 + 4x + 3$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o‘tishini;
- 2) Koordinata o‘qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya’ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to‘plami (ya’ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O‘sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

2. $y = -x^2 + 2x + 8$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o‘tishini;
- 2) Koordinata o‘qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya’ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to‘plami (ya’ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);

5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

3. $y = 2x^2 - 8$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

4. $y = -2x^2 + 4x$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

5. $y = x^2 - 2x - 3$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

6. $y = -x^2 + 4x + 5$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob: _____

7. $y = -3x^2 + 3$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob: _____

8. $y = -2x^2 + 8x$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob: _____

9. $y = x^2 + 4x - 5$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;

- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob: _____

10. $y = -x^2 + 2x + 8$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob: _____

11. $y = -2x^2 + 8$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob: _____

12. $y = -2x^2 - 8x$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

13. $y = x^2 - 6x + 8$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

14. $y = -x^2 + 4x - 3$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

15. $y = 0,5x^2 - 8$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

16. $y = -3x^2 + 6x$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;

- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob: _____

17. $y = x^2 + 2x - 8$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob: _____

18. $y = -x^2 + 6x - 8$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O'sish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob: _____

19. $y = 3x^2 - 3$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o'tishini;
- 2) Koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya'ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to'plami (ya'ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);

5) O‘shish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

20. $y = 3x^2 + 6x$ funksiya grafigini chizing. Grafik asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Funksiya grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida o‘tishini;
- 2) Koordinata o‘qlari bilan kesishish nuqtalari;
- 3) Aniqlanish sohasi (ya’ni, x ning qanday qiymatlari uchun funksiya mavjud);
- 4) Qiymatlar to‘plami (ya’ni, y qanday qiymatlar qabul qiladi);
- 5) O‘shish va kamayish oraliqlari;

Yechish:

Javob:_____

V. Matnli masalalar

1. Belgilangan ishni 15 kishi 12 kunda bajarishi mumkin. 4 kun ishlagandan so‘ng, beshinchi kuni ularga yordam berish uchun 5 kishi kelib qo‘shildi. Qolgan ish necha kunda tugatilgan?

Javob:_____

2. A va B shaharlar orasidagi masofa 210 km. A shahardan piyoda sayohatchi, B shahardan esa elektrovelosipedchi bir vaqtning o‘zida yo‘lga chiqishadi. Ular uchrashganida sayohatchi 42 km yo‘l bosgan bo‘ladi. Agar sayohatchining tezligi 6 km/h bo‘lsa, elektrovelosipedchining tezligini toping.

Javob:_____

3. Laylo 5 kishidan iborat oilasi uchun palov tayyorlamoqchi bo‘lib, 500 gramm go‘sht sotib oladi. Ertasi kuni ularga 15 nafar mehmon kelishi ma’lum bo‘ldi. Laylo palovni barchaga tayyorlashi uchun qancha go‘sht sotib olishi kerak?

Javob:_____

4. Suv sarfi birinchi oyda 10 % ga kamaydi, ikkinchi oyda esa yana 15 % ga kamaydi. Ikki oy davomida suv sarfi jami necha foizga kamaygan?

Javob:_____

5. Bir ishni 10 kishi 8 kunda bajara oladi. 2 kundan so‘ng (uchinchi kuni) ularga yordam berish uchun bir nechta kishi kelib qo‘shildi va qolgan ish 4 kunda bajarildi. Nechta kishi kelib qo‘shilgan?

Javob:_____

6. Maktabdan uyga 12 km masofa bor. O‘quvchi va o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida, biri maktabdan uyga, boshqasi uydan maktabga qarab yo‘lga chiqdi. Ular uchrashganda o‘quvchi 4 km yurgan bo‘ladi. Agar o‘quvchi 4 km/h tezlikda yurgan bo‘lsa, o‘qituvchining tezligini toping.

Javob:_____

7. Taxmina 4 kishidan iborat oilasi uchun palov tayyorlamoqchi bo‘lib, 500 gramm go‘sht sotib oladi. Ertasi kuni ularga 12 nafar mehmon kelishi ma‘lum bo‘ldi. Taxmina palovni barchaga tayyorlashi uchun qancha go‘sht sotib olishi kerak?

Javob:_____

8. Suv sarfi birinchi oyda 15 % ga kamaydi, ikkinchi oyda esa yana 10 % ga kamaydi. Ikki oy davomida suv sarfi jami necha foizga kamaygan?.

Javob:_____

9. Ishchilar belgilangan vazifani 15 kunda bajara olishadi, 5 kundan so‘ng ularga yana 8 kishi qo‘shildi va birgalikda qolgan ishni 6 kunda tugallashdi. Ishchilar dastlab necha kishi edilar?

Javob:_____

10. Daryo bo‘yidagi yugurish yo‘lagi 15 km. Ikki do‘st daryoning qarama-qarshi uchidan bir vaqtning o‘zida yugurishga tushdi. Ular uchrashganda biri 6 km bosib o‘tgan bo‘ladi. Agar uning tezligi 8 km/h bo‘lsa, ikkinchi do‘stning tezligini toping.

Javob:_____

11. Oilasi uchun palov tayyorlashda Feruza 900 gramm go‘sht sotib oladi (bu palov Feruza, eri va 4 farzandi uchun mo‘ljallangan). Ertaga ularga 12 nafar mehmon keladi. Feruza palovni barchaga tayyorlaydi. U qancha go‘sht sotib olishi kerak?

Javob:_____

12. Bir IT kompaniyasining foydasi birinchi chorakda 25 %, ikkinchi chorakda esa 30 % ga oshdi. Ikki chorak natijasida kompaniya foydasi jami necha foizga ortdi?

Javob:_____

13. Bir noutbukni faqat video ko‘rib ishlatilsa, batareya 4 soatga yetadi. Agar video bilan birga yuklab olish (download) ham ishlatilsa, zaryad atigi 2 soatga yetadi. Noutbukni faqat yuklab olish rejimida ishlatilsa, zaryadi necha soatga yetadi?

Javob:_____

14. Ona uydan maktabga qarab 3 km/h tezlikda yura boshladi. Shu vaqtda farzandi maktabdan uyga qarab velosipedda yo‘lga chiqdi. Uy va maktab orasidagi masofa 18 km. Ular uchrashganda ona 6 km yo‘l yurgan bo‘lsa, bolaning tezligini toping.

Javob:_____

15. Oilasi uchun palov tayyorlashda Shaxlo 700 gramm guruch sotib oladi (bu palov Shaxlo, eri va 3 farzandi uchun mo‘ljallangan). Ertaga ularga 15 nafar mehmon keladi. Shaxlo palovni barchaga tayyorlaydi. U qancha guruch sotib olishi kerak?

Javob:_____

16. Uyali aloqa operatori bir oyda internet tezligini 50 % ga oshirdi, keyingi oyda esa 20 % ga kamaytirdi. Natijada umumiy internet tezligi dastlabki tezlikka nisbatan qanday foiz o‘zgarishga uchradi?

Javob:_____

17. Jamshidning telefonida 5 GB internet bor. Agar u faqat YouTube ko‘rsa, bu internet unga 10 soatga yetadi. Agar YouTube va onlayn o‘yin o‘ynasa, 4 soatga yetadi. Unda faqat onlayn o‘yin o‘ynasa, internet necha soatga yetadi?

Javob:_____

18. Toshkent va Samarqand orasidagi masofa 300 km. Bir vaqtning o‘zida qarama-qarshi yo‘nalishda yuk mashinasi va avtomobil yo‘lga chiqdi. Ular uchrashganida yuk mashinasi 120 km yurgan bo‘ladi. Agar yuk mashinasining tezligi 60 km/h bo‘lsa, avtomobilning tezligini toping.

Javob:_____

19. Oilasi uchun palov tayyorlashda Zuxra 900 gramm guruch sotib oladi (bu palov Zuxra, eri va 4 farzandi uchun mo‘ljallangan). Ertaga ularga 18 nafar mehmon keladi. Zuxra palovni barchaga tayyorlaydi. U qancha guruch sotib olishi kerak?

Javob:_____

20. Bir do‘kondagi mahsulot narxi birinchi haftada 10 % ga arzonlashtirildi, ikkinchi haftada esa yana 20 % ga arzonlashtirildi. Umumiy narx kamayishi necha foizni tashkil qiladi?

Javob:_____

VI. Tenglamalar

1. Tenglamani yeching: $x^2 + |x| = 6$

Javob: _____

2. Tenglamani yeching: $\frac{x+3}{2} + \frac{x-1}{4} = \frac{x+7}{6} + 1$

Javob: _____

3. Tenglamani yeching: $x = 5 + 4\sqrt{x}$

Javob: _____

4. Tenglamani yeching: $|7x - 13| = 15$

Javob: _____

5. Tenglamani yeching: $x^2 - 7|x| + 6 = 0$

Javob: _____

6. Tenglamani yeching: $\frac{x-2}{3} + \frac{x+4}{6} = \frac{x+10}{4} + 1$

Javob: _____

7. Tenglamani yeching: $x - 12\sqrt{x} + 35 = 0$

Javob: _____

8. Tenglamani yeching: $|11x + 22| = 33$

Javob: _____

9. Tenglamani yeching: $x^2 - 4|x| = 21$

Javob: _____

10. Tenglamani yeching: $\frac{x+5}{5} + \frac{x-3}{3} = \frac{x+7}{2} + 1$

Javob: _____

11. Tenglamani yeching: $2x - 1 = 3\sqrt{2x - 1}$

Javob: _____

12. Tenglamani yeching: $|24 - 8x| = 31$

Javob: _____

13. Tenglamani yeching: $x^2 - |x - 5| = 5$

Javob: _____

14. Tenglamani yeching: $\frac{x-6}{4} + \frac{x+2}{6} = \frac{x+1}{3} + 2$

Javob: _____

15. Tenglamani yeching: $x^4 - 26x^2 + 25 = 0$

Javob: _____

16. Tenglamani yeching: $|9x + 14| = 29$

Javob: _____

17. Tenglamani yeching: $x^2 + |x - 4| = 4$

Javob: _____

18. Tenglamani yeching: $\frac{x+1}{2} + \frac{x-2}{5} = \frac{x+3}{3} + 1$

Javob: _____

19. Tenglamani yeching: $x^4 - 13x^2 + 36 = 0$

Javob: _____

20. Tenglamani yeching: $|12 - 5x| = 8$

Javob: _____

VII. Tengsizliklar

1. Tengsizliklar sistemasini yeching: $\begin{cases} 5(x + 1) - x > 7x - 8 \\ 4x + 2 \leq 2(2x + 1) - x \end{cases}$

Yechish:

Javob: _____

2. Tengsizlikni yeching: $2x^2 - 5x + 2 \geq 0$.

Yechish:

Javob: _____

3. Tengsizlikni yeching: $1 \leq -2x + 3 < 7$.

Yechish:

Javob: _____

4. Tengsizlikni yeching: $|1 - 3x| \leq 2$.

Yechish:

Javob: _____

5. Tengsizliklar sistemasini yeching: $\begin{cases} 2(x - 1) - 3 > 3x - 5 \\ 3x + 1 \leq 6(1 - x) + 7x \end{cases}$

Yechish:

Javob: _____

6. Tengsizlikni yeching: $3x^2 + 2x - 1 < 0$.

Yechish:

Javob: _____

7. Tengsizlikni yeching: $1 \leq -3x + 4 < 10$.

Yechish:

Javob: _____

8. Tengsizlikni yeching: $|4x - 1| < 17$.

Yechish:

Javob: _____

9. Tengsizliklar sistemasini yeching: $\begin{cases} \frac{x-5}{2} > \frac{1-2x}{3} \\ \frac{x+2}{3} > \frac{x-3}{2} \end{cases}$

Yechish:

Javob: _____

10. Tengsizlikni yeching: $4x^2 - 4x - 3 \geq 0$.

Yechish:

Javob: _____

11. Tengsizlikni yeching: $1 \leq -2x + 5 < 7$.

Yechish:

Javob: _____

12. Tengsizlikni yeching: $|4x - 3| \geq 13$.

Yechish:

Javob: _____

13. Tengsizliklar sistemasini yeching:
$$\begin{cases} \frac{3x-5}{2} < \frac{1+2x}{3} \\ \frac{3x-3}{2} > \frac{2x+2}{3} \end{cases}$$

Yechish:

Javob: _____

14. Tengsizlikni yeching: $6x^2 - 7x - 5 > 0$.

Yechish:

Javob: _____

15. Tengsizlikni yeching: $2 < -3x + 8 \leq 11$

Yechish:

Javob: _____

16. Tengsizlikni yeching: $|3x + 2| > 1$.

Yechish:

Javob: _____

17. Tengsizliklar sistemasini yeching:
$$\begin{cases} 3x - 5 \geq x - 9 \\ 2x + 7 < 3x + 9 \\ 8 - 5x > 2 - 4x \end{cases}$$

Yechish:

Javob: _____

18. Tengsizlikni yeching: $6x^2 - 7x + 2 < 0$.

Yechish:

Javob: _____

19. Tengsizlikni yeching: $1 < -3x + 10 \leq 13$.

Yechish:

Javob: _____

20. Tengsizlikni yeching: $|2 - 5x| \geq 3$.

Yechish:

Javob: _____

VIII. Tenglamalar va tenglamalar sistemasi yordamida masalalar yechish

1. Onlayn kurslar. Alisher 3 ta dasturlash kursi va 2 ta ingliz tili kursiga yozilib, 500000 so'm to'ladi. Nodira esa 2 ta dasturlash va 4 ta ingliz tili kursiga 520000 so'm to'ladi. Har bir kurs qancha turadi?

Javob: _____

2. O'quv markazida fan to'plamlari. Komil matematika bo'yicha 2 ta va fizika bo'yicha 3 ta test to'plami sotib olib, 85000 so'm to'ladi. Dildora 3 ta matematika va 1 ta fizika to'plamiga 75000 so'm to'ladi. Har bir fan test to'plamining narxini toping.

Javob: _____

3. Elektron qurilmalar. Bahodir 1 ta planshet va 2 ta simsiz quloqchin olib, 3200000 so'm to'ladi. Sohiba esa 2 ta planshet va 1 ta quloqchin uchun 4100000 million so'm to'ladi. 1 ta planshet va 1 ta simsiz quloqchin narxini toping.

Javob: _____

4. Robototexnika darslari. Maktabda 4 ta elektronika to'plami va 3 ta datchik to'plamiga 260000 so'm to'landi. Boshqa bir maktab 2 ta elektronika to'plami va 4 ta datchik to'plami uchun 240000 so'm to'ladi. Har bir to'plamning narxini toping.

Javob: _____

5. Kutubxona obunasi. Ikrom 5 ta ilmiy jurnal va 2 ta badiiy kitob uchun 145000 so'm to'ladi. Lola 3 ta jurnal va 4 ta kitob uchun 155000 so'm to'ladi. Har birining narxini toping.

Javob:_____

6. Xarid masalasi. Javohir supermarketdan 3 kg olma va 2 kg banan xarid qilib, jami 46000 so'm to'ladi. Uning ukasi Diyor esa 2 kg olma va 4 kg banan olib, 56000 so'm to'ladi. 1 kg olma va 1 kg banan narxini toping.

Javob:_____

7. Ta'lim grantlari. Ilmiy tanlovda g'olib bo'lgan o'quvchilardan biri 2 ta grant va 3 ta sertifikat uchun 560000 so'm mukofot oldi. Boshqasi 4 ta grant va 1 ta sertifikat uchun 700000 so'm oldi. Grant va sertifikat uchun beriladigan mukofot pullarini aniqlang.

Javob:_____

8. Mobil ilovalar obunasi. Javohir bir oyda 2 ta til o'rganish va 4 ta texnologik ilovaga obuna bo'lib, 120000 so'm to'ladi. Nilufar esa 3 ta til va 1 ta texnologik ilovaga 110000 so'm to'ladi. Har bir ilova obunasi necha so'm?

Javob:_____

